INGLIZ TILIDAGI SON KOMPONENTINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA QO‘LLANILISHI

Beknazarova Iroda Yormamatovna
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
Samandarova Sarvinoz Ulug‘bekovna
Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada lingvistikada miqdor kategoriyasining namoyon bo‘lish usullaridan biri son kategoriyasi va uning vositasida predmetlar va ularning hodisalari shuning-dek ob’ekt yoki uning qismlarining tashqi, rasmiy munosabatlarini, xususiyatlarini, aloqalarini ifodalovchi son kategoriyasi shuningdek, turli tillarda frazeologik birliklarning bir qismi sifatida ifodalanishi tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *son komponenti, miqdor kategoriyasi, frazeologik birlik, ramziy ma’no, miqdor, ob’ekt, munosabat, kommunikaitsya, lingvistik tahlil, tarixiy tahlil, g‘oya, madaniyat.*

Ob’ektlar va hodisalarning sifat jihatidan aniqligi ularni barqaror qiladigan, ularni o‘ziga xos qilib turadigan, dunyoning cheksizligi va turli-tumanligini ko‘rsatib beruvchi narsadir. Sifatli aniqlik bilan bir qatorda, barcha ob’ektlar miqdoriy aniqlikka ham ega, ya’ni, ma’lum miqdor, son, hajm, jarayonlarning kechishining sur’ati va boshqalar.

Tilda miqdor kategoriyasining namoyon bo‘lish usullaridan biri bu son bo‘lib u, miqdorning ifodasi sifatida xizmat qiladi, ya’ni, uning vositasida predmetlar va hodisalar hisoblanadi. Ob’ekt yoki uning qismlarining tashqi, rasmiy munosabatlarini, shuningdek xususiyatlarini, aloqalarini (ularning miqdorini, soni va boshqalarni) ifodalovchi son kategoriyasi, turli tillarda frazeologik birliklarning bir qismi sifatida ifodalanadigan ko‘rinishga ega. Son maxsus so‘z belgisi sifatida jamiyatda juda muhim rol o‘ynaydigan kommunikatsiya birligi hisoblanadi.

Muayyan til lug‘atining bir qismi sifatida frazeologik birliklar (FB) insoniyat madaniyatining eng vositalari sifatida talqin qilinadi. Sonlarni frazeologik birliklarning bir qismi sifatida o‘rganish, turli xalqlar madaniyatining alohida qirralarini batafsil ochib berish va o‘rganish imkonini yaratadi. Til vositalari tahlillari shuni tasdiqlaydiki, son kategoriyasi frazeologizatsiya jarayonida sifat jihatdan o‘ziga xos o‘zgarishlarni boshdan kechirib, o‘ziga xos bo‘lmagan g‘ayrioddiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunday holda, u nafaqat miqdorni belgilash uchun ishlatiladi, balki maxsus ramziy ma’no ham kasb etishni boshlaydi. Shunga asoslanib, biz tarkibida son komponentiga ega bo‘lgan frazeologik birliklarini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin: o‘z leksik ma’nosini saqlagan son komponentli frazeologik birliklar va son komponentining ramziy ma’nosi asosidagi frazeologik birliklar.

U yoki bu son komponentning FB tarkibida qo‘llanilishi mantiqiy tarzda yoki muayyan vaziyat nuqtai nazaridan tushuntirilishi mumkin. Biz ko‘rib chiqqan o‘ziga xos ramziy ma’noga ega frazeologik birliklarda son komponentni o‘rganish juda sub’ektiv ko‘rinishga ega, ammo biz foydalanilgan lug‘at manbalari asosida ma’lum bir sonning maxsus ramziy ma’nosini topishga harakat qilamiz.

Ushbu maqolada A.V.Kuninning frazeologik lug‘atidan son komponentli 323 frazeologik birligidan faqat ba’zi sonlarning ramziy ma’nolari tahlil qilinadi [2]. Misol tariqasida *zero* son komponenti boshqa raqamlardan farq qiladigan tushunchalarni o‘z ichiga oladi, ya’ni, boshlang‘ich g‘oya, boshlang‘ich nuqta, harakat qilish zarurati: zero hour-(harbiy) hujum boshlanishining vaqti; (ko‘chma) hal qiluvchi soat.

Ma’lumki, ramziy ma’no diniy, ba’zan mistik, mulohazalar yoki mifologik ma’nolar asosida yaratilishi mumkin. Bu fikrni to‘liqligicha “bir” raqamining talqini bilan bog‘lash mumkin.

Jek Tressiderning ramzlar lug‘ati bo‘yicha “bir” raqami birlamchi yaxlitlikni, ilohiy mohiyatni (yoki Yaratuvchini), nur yoki quyoshni, hayot manbasini anglatadi. G‘arb an’analarida Arab raqamining bu shakli tajovuzkor, aktiv ram-ziylikka ega edi. “Bir” raqami barcha asosiy monoteistik dinlarda, ayniqsa Islomda Xudoning ramzi bo‘lgan. Pifagor tarafdorlari fikriga ko‘ra “bir” raqami har qanday hisoblashning asosiy nuqtasi hisoblanadi. Konfutsiy izdoshlari fikriga ko‘ra bu asosiy mohiyatning ifodasi, bo‘linmas narsa, butun borliq paydo bo‘lgan mistik markazdir. Oddiy ma’noda, “bir” raqami boshlanishning timsoli, inson “ichki men” belgisi, shuningdek yolg‘izlik timsoli.

A.V.Kuninning frazeologik lug‘atida ajratib olingan “one” son komponenti qatnashgan 14 frazeologik birlik ichida, faqatgina 7ta FB ramziy ma’noga ega:

to be made one - turmush qurmoq;

one in the eye for smb. - sl. zarba, muvafaqqiyatsizlik;

one over the eight - sl. mast, shirakayf;

one too many (yoki too much) for somebody - hammadan kuchliroq yoki ayyorroq;

with one accord (yoki consent) - bir ovozdan;

be at one – bir yoqadan bosh chiqarish, kelishilgan holda harakat qilish, bir ovozdan;

all one to somebody – umuman muhim emas, bari bir.

“Ikki” soniga kelsak, uning ma’nolaridan biri – “ikki yoqlamalik, birlikning yo‘qligi” (masalan, to be in two minds - tanlovga duch kelish FBsi kabi) ikki soni dimiy ravishda qarama-qarshilikning ramziy ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan [3, b. 213].

“Uch” son komponenti - uch olam aloqasining ramzi; aqliy va ruhiy tartib, uyg‘unlik, samo. Qadimgi Eronning aholisi nazarida “3” soni axloqiy uchlikni ramzi hisoblangan: yaxshi fikrlar, yaxshi so‘zlar, yaxshi harakatlar [3, b. 373]. Aynan shu ramziy ma’no bilan “uch” son komponenti quyidagi frazeologik birliklarda ishlatiladi give three cheers - “uch bora xayqirish” va three cheers (for) – “yashasin!”. “Uch” son komponenti uyg‘unlik, tartib, mukammallik, shuningdek baxt va farovonlik ramzidir.

“To‘rt” son kosponenti barqarorlikka, yaxlitlikka muhtoj bo‘lgan hamma narsaning butunligini anglatadi degan fikrni ilgari surish mumkin. Masalan:

the four corners of the world - dunyoning to‘rt burchagi;

within these four walls – shu xona devorlaridan tashqariga olib chiqilishi mumkin bo‘lmagan sir.

“Besh” son komponenti insonning ramzi bo‘lib, u boshi, qo‘llari bir -biridan yoyilgan va oyoqlari bir-biridan keng tarqalgan besh qirrali yulduzni tashkil etuvchi yoki oddiygina besh qirrali yulduz (pentagram) bilan belgilangan odamning figurasi bilan grafik tarzda tasvirlangan. Insonning mikrokosmosi bilan (shuningdek, qo‘l bilan) ushbu assotsiatsiyadan tashqari, “besh” soni Xitoy, Yapon, kelt va boshqa an’analarda (to‘rtta asosiy yo‘nalish va Markaz) koinotning muhim ramzi hisoblangan. Besh sonini, shuningdek, sevgi, sog‘liq, his-tuyg‘ularga berilish, meditatsiya, tahlil, tanqid, kuch, o‘zaro bog‘liqlik, organik o‘sish va yurak bilan bog‘liq.

Pifagor tasavvufining ta’limotiga ko‘ra, besh, xuddi etti soni kabi muqaddas bo‘lib, uchni (osmon belgisi) va ikkini (er belgisi) birlashtirgan va tabiat va san’at qonunlari asoslanadigan son hisoblangan. Qadimgi antik dunyoda besh soni Sevgi va ov ma’budasi Afrodita bilan ham bog‘liq edi (Rim mifologiyasida Venera).

Xitoyda besh soni dunyo markazining ramzi hisoblangan, uning dunyoning ramziy manzarasidagi ahamiyati juda katta edi: dunyoning besh qismi va beshta sezgidan tashqari, beshta element, beshta metall, beshta rang, beshta musiqiy ohang, beshta asosiy ta’mlar mavjud.

Xristian ikonografiyasida besh soni – Iso Masihning yaralari soni. Islom an'analarida besh soni foyda va himoya belgisidir, musulmonlar o'z dinlari beshta ustunga asoslangan deb hisoblashadi: imon, ibodat, haj, ro'za, rahm-shafqat. Yahudiylikda besh soni kuchning ramzidir.

Shunga qaramay, A.V.Kuninning lug'atida "besh" son komponentli birorta frazeologik birlik qayd etilmagan. Biroq, bu raqam bilan faqat bitta ibora ma'lum, ya'ni besh barmog'i ochiq ko'tarilgan qo'l shaklidagi tasdiqlash ishorasi, bu uning to'g'ridan - to'g'ri soni qiymatini ko'rsatadi - high five.

Olib borilgan tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, barcha raqamlar ham ingliz frazeologik birliklarining tarkibida ishlatilmaydi va ramziy ma'noga ega emas. Raqamli komponentlarning aksariyati o'z ma'noda ishlatiladi. Misol uchun, bunch of fives - "besh barmoq, musht"; know smb (smth) as one knows his ten fingers – "juda yaxshi bilish".

Half, single, pair kabi periferiyada joylashgan raqamli komponentlardan ramziy ma'noda foydalanish kuzatilmadi. Shunday qilib, ingliz frazeologik birliklarida raqamli komponentdan foydalanish har doim ham ularning bevosita leksik ma'nosi bilan bog'liq emas. Shu bilan birga, aksar raqamlar maxsus ramziy ma'noga ham ega.

Til – millatning ma'naviy boyligi, qiyofasining bir bo'lagi va birdamligi timsolidir. Har bir millat milliy o'ziga xosligi hamda o'z madaniyati bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Bunda, shubhasiz, uning tili ham madaniyatining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, millat madaniyatining yuksalishi, uning tarixiy an'analari, qadriyatlari, xotirasini namoyon etishda tilning ahamiyati beqiyosdir. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo'lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Ma'lumki, til madaniyatning tarkibiy qismi, uning quroli bo'lishi mumkin, til madaniyat ruhining ifodasi hamda madaniyat mavjudligining o'ziga xos usuli hamdir. Millat, madaniyat va til bog'liqligini o'rganish va talqin qilish fanlararo muammo hisoblanib, bu masalani yechimi bilan nafaqat lingvomadaniyat, balki falsafa, madaniyatshunoslik, stilistika, tilshunoslik, etnolingvistika va sotsiologiya kabi fanlar ham shug'ullanadi [5, b. 64]. Raqamli komponentdan foydalanilishni ramziy nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin bo'lgan frazeologik birliklar tegishli frazeologik birliklarning umumiy soniga nis-batan kichikroq guruhni tashkil qiladi. Biroq, ularni o'rganish lingvomadaniyat-shunoslik sohasi uchun juda qiziqarli va muhim hisoblanadi, chunki bu orqali ingliz tilida so'zlashadigan xalqlarning madaniyati va dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'proq bilish imkoni yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Керлот Х.Э. Словарь символов/Х.Э. Керлот. - М.: Refl-book, 1994. - 602 с.
2. Beknazarova I.Yo. Ingliz va o'zbek tillarida so'z turkumlari tipologiyasi // ALMA MATER. Yosh o'qituvchi va magistrlarning ilmiy maqolalar to'plami – Samarqand: SamDChTI, (2020 yil, 83-86 betlar), SamDChTI nahsr-matbaa markazi.
3. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь/А.В. Кунин. - М.: Сов. Энциклопедия, 1967, т. 1-2. - 1264 с.
4. Словарь символов Джек Тресиддер//Библиотека Гумер– культурология [Электрон ресурс]. http://www.gumer.info/ bibliotek_Buks/Culture/JekTresidder
5. Турдиева Н.Ё. Тил ва маданиятнинг ўзаро муносабати//Хорижий филология. Самарқанд: СамДЧТИ, 2022 № 2 (83). - Б. 64-69 ISSN: 2181-743X; Indeks 1266 2-2022.pdf (samxorfil.uz)